


2019-yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtida xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.


2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 25,3 mingdan ortiq faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 15,4 mingdan ortiq korxona va tashkilotlar jalb qilingan.

2020-yil 1-yanvar holatiga korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 10,6 mingdan ortiq korxona va tashkilotlar kichik biznes sub'ektlarini tashkil etadi. 2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, ularning ulushi 68,8 % tashkil etdi.

**2020-yil 1-yanvar holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,
kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %**



2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi (39,1 %) yaqin.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi (7,4 %)ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi (5,7 %)ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi (3,9 %)ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi (1,8 %)ni tashkil etdi.

**2020-yil 1-yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha tarkibi, %**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 8 736,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,9 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga (32,8 %), transport xizmatlariga (22,8 %),

moliyaviy xizmatlarga (13,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga (5,0 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2019-yil yanvar-dekabr oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi (yanvar-sentyabr oylari) davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (828,5 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (566,7 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (333,0 mlrd. so'mga) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (120,1 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


Ma'lumot uchun: 2018 yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari – 470,4 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 403,3 mlrd. so'm, transport xizmatlari – 358,5 mlrd. so'm, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 61,1 mlrd. so'mga oshgan.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	8736,9	110,9
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	437,1	112,2
moliyaviy xizmatlar	1 193,6	145,2
transport xizmatlari	1 995,1	109,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 875,3	107,5
yashash va ovqatlanish xizmatlari	230,2	100,4
savdo xizmatlari	2 861,6	105,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	279,7	101,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	292,8	104,6
sog'lioni saqlash sohasidagi xizmatlar	98,4	106,1
ijara xizmatlari	235,2	103,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	306,5	100,0
shaxsiy xizmatlar	308,4	103,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	173,0	122,3
boshqa xizmatlar	325,3	112,3

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (145,2 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (122,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (112,2%), transport xizmatlari (109,4 %), sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar (106,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlari (104,6 %) xizmat turlarida qayd etildi.


**2019-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ijara xizmatlari (103,2 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha (100,4 %) va kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (100,0 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2019-yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi (32,8 %)ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (22,8 %), moliyaviy xizmatlar (13,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,0 %) egallaydi.


2019-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



2019-yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 2 861,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 32,8 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 470,4 mlrd. so'mga oshdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ning ulushi 83,8 % ni tashkil etadi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 11,5 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosini bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,7 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %



2019-yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 437,1 mlrd. soʼmni tashkil etdi. Oldingi oylar(yanvar-sentyabr oylari)ga nisbatan oʼsishi 119,6 mlrd. soʼmni tashkil etdi.


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog’i, yo’ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 96,8 % ni tashkil etadi.

Bugungi kunda oʼquv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan taʼminlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish boʼyicha xizmatlar hajmi 230,2

mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,6 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar
89,1 %

Yashash bo'yicha xizmatlar
10,9 %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
100,0 %


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 89,1 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 10,9 % ga to'g'ri keladi.

Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihamarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1193,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 145,2 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (92,1%) tashkil etadi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




**2019-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyat	8 736,9	110,9
Qarshi sh.	4 444,2	115,5
Shahrisabz sh.	244,1	121,2
G'uzor	306,7	110,3
Dehqonobod	191,4	103,8
Qamashi	285,4	104,1
Qarshi	356,3	105,4
Koson	457,5	105,2
Kitob	397,4	105,1
Mirishkor	205,2	118,1
Muborak	287,7	96,9
Nishon	296,0	107,7
Kasbi	189,1	105,6
Chiroqchi	337,5	104,8
Shahrisabz	364,2	103,9
Yakkabog'	374,2	106,7

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (4 444,2 mlrd. so'm), Koson (457,5 mlrd. so'm), Kitob (397,4 mlrd. so'm), Yakkabog' (374,2 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mirishkor (205,2 mlrd. so'm), Dehqonobod (191,4 mlrd. so'm), Kasbi (189,1 mlrd. so'm), tumanlarida kuzatilmoqda.


**2019-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
o'sish sur'ati, %**



Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Muborak (96,9 %), Yakkabog' (106,7 %), Shahrисабз (103,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyati tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.


2019-yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida hududlarning ulushi, %



Hududlar o'rtaida xizmatlar umumiylajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (50,9 %), Koson (5,2 %), Kitob (4,5 %), Yakkabog' (4,3 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtaida eng kam ulush Kasbi (2,1 %), Dehqonobod (2,2 %), Mirishkor (2,3 %) tumanlari to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, %




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har chorakda o'sishi kuzatilmoxda. 2019 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan hajm 767,4 ming so'mga oshib, 2691,1 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 498,0 ming so'mga farq qildi.

Hududlar orasida bu ko'rsatkich Qarshi shahrida 16284,9 ming so'mdan, Chiroqchi tumanida 833,3 ming so'mgacha oralig'ida farq qildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning maksimal o'sishi Mirishkor tumanida (158,5 %), Nishon tumanida (149,7 %), Qarshi tumanida (130,3 %), va Yakkabog' tumanlarida (125,4 %) kuzatildi.

Uncha yuqori bo'Imagan o'sish sur'atlari Shahrisabz shahrida (93,3 %), Shahrisabz tumanida (93,4 %), Muborak tumanida (95,2 %), Qarshi shahrida (105,7 %), G'uzor tumanida (106,5 %) qayd etildi.



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
(998)75-221-44-32 (998)71-230-84-03